


2021- yilning yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida jami **1 820,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **113,5 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil 1- may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3 385** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **387** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **111,5** %ga (jami qurilishdagi ulushi **55,2** %), fuqarolik obyektlarini qurish **107,6** %ga (jami qurilishdagi ulushi **10,9** %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **117,1** %ga (jami qurilishdagi ulushi **33,9** %) o'sishidir.




Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.05.2020- yil	01.05.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	2998	3385	112,9
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	794	910	114,6
	Qo'qon	307	337	109,8
	Quvasoy	105	119	113,3
	Marg'ilon	299	345	115,4
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	95	115	121,1
	Qo'shtepa	99	105	106,1
	Bag'dod	159	156	98,1
	Buvayda	125	131	104,8
	Beshariq	78	93	119,2
	Quva	132	147	111,4
	Uchko'prik	162	186	114,8

	Rishton	65	79	121,5
	So'x	34	57	167,6
	Toshloq	125	133	106,4
	O'zbekiston	78	84	107,7
	Farg'ona	87	105	120,7
	Dang'ara	121	129	106,6
	Furqat	66	75	113,6
	Yozyovon	67	79	117,9


Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.05.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (**26,9 %**), Marg'ilon (**10,2 %**) va Qo'qon (**10,0 %**) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **112,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **118,1 %**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,2 %** punktga ko'payib, **6,2 %**ni tashkil etdi.


**Yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **21,7 %**i yoki 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **29,7 m.**, Quvasoy shahrida jami qurilish ishlari hajmining **16,4 %**i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4 m.**, va Qo'shtepa tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **11,5 %**i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **78,8 m.to'g'ri keldi.**

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,3 %**i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **0,9 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **116,6 %**ni tashkil etgan holda **1298,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **43,4** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 776,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4 %** va **97,6 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **60,2 %** yoki **1 095,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **105,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,7 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **631,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,7 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **357,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **32,7 %**ni tashkil etdi.

60,2 %

9,7 %

57,7 %

32,7 %




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	1 820,0	113,5	1 095,0
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	407,4	100,5	253,1
Qo'qon	210,6	130,9	81,7
Quvasoy	50,2	40,8	74,7
Marg'ilon	236,4	195,2	158,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	64,1	152,6	23,3
Qo'shtepa	74,0	148,5	39,6
Bag'dod	211,1	103,9	59,8
Buvayda	95,5	190,2	22,5
Beshariq	28,6	72,6	58,0
Quva	54,4	112,1	88,1
Uchko'prik	46,6	126,7	19,4
Rishton	33,8	233,4	14,1
So'x	23,3	112,7	4,7
Toshloq	54,9	142,2	12,9
O'zbekiston	60,0	146,4	65,0
Farg'ona	25,4	84,7	15,2
Dang'ara	63,7	69,1	23,7
Furqat	33,4	65,6	53,0
Yozyovon	46,6	129,9	27,4

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,3 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko'payib, **67,2 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,0 %** punktga kamayib, **27,5 %**ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **10,7 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan **17,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,4 %** (**14,5 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **3,9 %** (**3,4 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **6,5 %** punktga kamaydi va **8,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **91,1 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **6,5 %** punktga ko'paydi.

ulushi, %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.
407,4

Marg'ilon sh.
236,4

Qo'qon sh.
210,6

Bag'dod t.
211,1



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (407,4 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (236,4 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (210,6 mlrd. so'm), Bag'dod t. (211,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Ijr : O'.Umarov
Tel.: (73) 249-87-26
(73)-241-98-42